

SHAXS MA'NAVIY KAMOLOTIDA MILLATNING O'RNI

Lutfullayeva Azizaxon Xayrullo qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Ijtimoiy -gumanitar fanlar va san'at fakulteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari huquq ta'limi yo'nalishi 303-guruh talabasi .

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11171172>

Mazkur maqolada shaxs ma'naviyati millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligi, shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, adabiyot va san'at muhim o'rin tutishi, buyuk ajdodlarimizning millatimiz ma'naviyatiga qo'shgan fidokorona xizmatlari hamda o'zbek millati bilan boshqa millatlar o'rtasidagi ma'naviy-madaniy munosabatlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit sozlar: Shaxs, millat, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, urf-odatlar adabiyot va san'at .

В данной статье духовность личности - неотъемлемая часть духовности нации, значение национальных ценностей, традиций, литературы и искусства в формировании духовности личности и нации, бескорыстные заслуги нашего великого показаны предки духовности нашего народа и духовно-культурные связи узбекского народа с другими народами.

Ключевые слова: Человек, нация, духовность, национальные ценности, традиции, литература и искусство.

In this article, the spirituality of the individual is an integral part of the spirituality of the nation, the importance of national values, traditions, literature and art in the formation of the spirituality of the individual and the nation, the selfless services of our great ancestors to the spirituality of our nation and the Spiritual and cultural relations between the Uzbek nation and other nations are shown.

Key words: Person, nation, spirituality, national values, traditions, literature and art.

Shaxs va millat ma'naviyati to'g'risida fikr yuritishdan oldin avvalo shaxs va millat so'zlariga ta'rif berishni joiz deb bildik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va hatti harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan xulq-atvor va dunyo qarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Millat uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida



shakllangan xalq etnik tarixning eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli. Millat so'zi arab tilida quyidagi ma'noni anglatadi: din, mazhab, ummat, xalq, qavm.


Shaxs ma'naviyatini tushunishdan oldin shaxs ma'naviyatini o'rganish kerak. Shaxs ma'naviyatini o'rganish ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin. Birinchi muayyan shaxs ma'naviyatini o'rganish, ikkinchisi umumiy jihatlarini o'rganish. Birinchi yo'nalishda biz o'tmish va bugunning umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan shaxslarning ma'naviy dunyosini o'rganamiz. Nega aynan biz shunday shaxslarning ma'naviyatini o'rganishimiz kerak axir ma'naviyatni xalqimizdan ham o'rgansak bo'ladi. Agar shu tariqa bir yoqlama fikr yuritib olimu-fuzololar xalqimizdan ustun ekan-da deydigan bo'lsak katta xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Buyuk allomalarimiz ham xalqimizning bir bo'lagidir. Ular ham o'z ma'naviyatlarini yetuklik sari rivojlantirishni asrlar davomida ilmi-toliblarni yetishtirib chiqargan, yuksak axloq va fazilat sohibi bo'lgan, yaxshilikni o'zi uchun to'g'ri yo'l deb yomonlikdan nafratlangan, har doim adolatni mustahkam o'rnatishga xarakat qilgan o'zbek xalqidan o'rganganlar. Shularning natijasida dunyoviy va diniy ilmlarga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, Mahmud az-Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiy, Abu Nasr Forobiy o'zlarining yozgan asarlari orqali nafaqat o'zbek xalqi ma'naviyati balki butun jahon ma'naviyatida ulkan joy egallagan. Misol uchun Alisher Navoiy harakatlarining bu sohadagi faoliyatlarini o'rganadigan bo'lsak u insonning naqadar ulkan ma'naviyat sohibi bo'lganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shoirning eng mashhur adabiy meroslaridan biri bu "Ma'nolar Xazinasi" ("Xazoyin ul-maoniy") she'rlar to'plamidir. Ushbu asar nomidan ham bilish mumkinki Alisher Navoiy hayotida faqat she'r, g'azal, ruboiy, yoki dostonlar emas balki ma'naviy dunyoqarash ham keng o'rin egallagan va shularning natijasida Navoiy hazratlari o'z asarlarini mukammal tarzda yoza olgan. Bundan ko'rib turibmizki har bir inson hayotida qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar ma'naviyat birlamchi o'rinda turadi. Shunday qilib biz buyuk shaxslarning ma'naviyatini o'rganib asarlarini tahlil qilib shaxs ma'naviyatini anglar ekanmiz.

Xo'sh unda millat ma'naviyati nimalardan tashkil topgan, uning asosi nima?, yoki kim?, millat ma'naviyatini qanday qilib yanada rivojlantirsak bo'ladi? degan savollar tug'ulishi tabiiydir. Avvalo millat ma'naviyatining asosini o'sha millatga mansub insonlarning ma'naviyati tashkil qiladi. Sababi dunyodagi har bir inson bir millatning bo'lagi hisoblanadi. Bir inson ikkita davlatning



fuqarosi bo'lishi mumkin bu huquqiy sohada bor, lekin bir inson ikki millatning vakili bo'lolmaydi. Buning imkoni ham yo'qdir. Shuning uchun ham inson hamisha o'z millati kelajagi uchun hayrli ishlar qilmog'i joiz. Millat ma'naviyati nimalardan tashkil topgan deydiyan bo'lsak avvalo millat ma'naviyati o'sha millatning o'z ona tilidan tashkil topgan. Zero millatni millat qiladigan bu uning tilidir. Agar uning o'z ona tilisi bo'lmasa demak u qandaydir bir guruh yoki keng ma'noda jamiyatga ham o'xshatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Sovet Ittifoqi tarkibidaligida ham o'z mustaqilligi uchun tashlagan ilk qadami 1989-yil 21-oktyabrda "O'zbek tili haqidagi" qonunning qabul qilinishi bo'ldi. Undan oldin esa vatanimizda o'zbek tilidan emas balki rus tilidan foydalanilar edi. Albatta bu millatimizga qilingan eng og'ir jinoyatlardan biridir. Chunki bir millatdan ona tilisi tortib olinsa unga qilingan eng og'ir va kechirilmas jinoyat deb baholanadi. Sababi ona tilidan ayrilgan millat oxir oqibat butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda o'zbek tiliga juda katta e'tibor qaratilmoqda barcha davlat va nodavlat tashkilotlari rasmiy ishlarini o'zbek tilida, fuqarolarning millatiga qarab esa boshqa tillarda o'z faoliyatlarini olib bormoqda. Chunki O'zbekistonda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elatlar tinch va axil istiqomat qilib kelmoqda. Bu esa o'zbek millatining boshqa millatlarga nisbatan doimo do'stona munosabatda qarashini isbotlab kelmoqda. Zero millatlar aro bag'rikenglik g'oyasi millat ma'naviyatining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Millat ma'naviyatining yana bir bo'lagi bu dindir. Shu yerda bir savol vujudga keladi dini bo'lmagan millatlarchi?, ularda dinni o'rnini nima egallaydi? Dini yo'q millatning o'zi yo'q yer yuzidagi qaysidir millatda faqatgina bitta dinga e'tiqod qilsa boshqa millatlarda esa diniy bag'rikenglik g'oyasi ustuvor ya'ni o'sha millat a'zosi hohlagan diniga e'tiqod qilsa bo'ladi. Hozir aytib o'tganimizdek dini yo'q millatning o'zi yo'q lekin dini yo'q millat a'zosi bor. Ya'ni bir millatda yashaydigan biroq hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydigan insonlar, albatta bu har bir insonning o'z huquqidir. Kimnidir dinidan majburan chiqarish yoki dinga majburan e'tiqod qildirish jinoyat hisoblanadi, chunki bu inson huquqlarining buzilishiga olib keladi. Mustaqilligimizdan oldin bizdan tilimiz bilan bir qatorda dinimiz ham tortib olingan edi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng millatimizga ona tilimiz va shu bilan birga dinimiz ham qaytarib berildi.

Millat ma'naviyatini tashkil qiladigan asosiy bo'lagidan yana biri millatning urf-odat, an'ana va qadriyatlaridir. Urf-odat, an'ana va qadriyatlar deganda nimani tushunishimiz kerak? Qadriyatlar voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-madaniy ahamiyatini



ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, an'ana va urf-odatlar qadriyat hisoblanadi. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak qadriyatlar millatning ko'zgusidir. Qadriyatlarda millat o'zini ko'radi. Nega aynan biz qadriyatlarni ko'zguga o'xshatyabmiz sababi qadriyatlarda millatga xos bo'lgan barcha xususiyatlar o'rin tutgan. O'zbek milliy qadriyatlari deb faqatgina o'zbek millatiga xos bo'lgan qadriyatlarga aytiladi. Misol uchun: kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat ko'rsatish, ozodalikka rioya qilish, doimo ilm olishga harakat qilmoqlik, ota-onani hurmat qilish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ya'ni tabiatni asrash kabilarni keltirishimiz mumkin. Ota-onani hurmat qilish nafaqat qadriyat balki eng sharaflı yo'ldir. Ota-onani e'zozlash bilan bir qatorda ularga nisbatan chiroyli muomalada bo'lmoqlik ham farzandning asosiy burchidir. Lekin bu ishni burch deya emas balki chin insoniylik qalbidan chiqarib bajarsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. O'zbek millatida ham doim ota-onani hurmat qilish va ularga samimiy munosabatda bo'lish ulug'lanib kelingan. Bularga oilaviy munosabatlarda guvoh bo'lamiz va bu jarayonda o'zimiz ham bevosita qatnashamiz. Oilada ota boshlig' ekanligi, oila a'zolari atrofıdagi dasturxonda kattalar kelmagunicha ovqat tanavvul qilinmasligi, oiladagi yoshi katta buva va buvilarga alohida ehtirom ko'rsatılınishi o'zbek xalqining ziynatlanib zumradlar bilan bezatılınan qadriyatlarıdın birıdır. Biz aytishimiz mumkin bu munosabatlarning ba'zi birlari birgina bizda emas balki g'arb mamlakatlarida ham bor-ku deb. To'g'ri g'arb mamlakatlarida ham ushbu munosabatlar mavjuddir lekin farqi shundaki ular buni majburiyat yuzasidan qonunga bo'ysunganidan bajaradilar. Bizda esa insoniylik qonuni birinchi navbatda amal qiladi. Insoniylik qonuni amal qilgan joyda qolgan barcha huquqiy qonunlar o'z vazifasini bir tekisda bajara oladi. Urf-odat an'analarga keladigan bo'lsak o'zbek millatining milliy liboslari, marosimlari, bayramlarini o'z ichiga oladi. Misol tariqasida Navro'z bayramini olaylik. Bu bayram to'laqonli urf-odat va an'analarga mos ravishda o'tkazılınadı. Bu bayramning o'ziga xos taomlari, turli xil o'yinlari, aytishuv-laparlari mavjuddir. Navro'z bayrami O'zbekiston Respublikasi tomonidan umumxalq bayrami deya e'lon qılınan. Ushbu bayram O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida keng miqyosda nishonlandı.

Millat ma'naviyatining asosini adabiyot va san'at ham tashkil qiladi. Mamlakatimizda adabiyot va san'at sohasini rivojlantirish davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bundan ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahlıga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rish



mumkin. So'ngi yillarda mazkur sohaga oid yigirmaga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Ularning ijrosi yuzasidan sa'y harakatlar olib borilyapti. Prezidentimiz Shu.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori ushbu jabhadagi mavjud muommo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega. Binobarin davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilganligi bilan o'lchanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga bo'lgan munosabatimiz, millatimizning buguni, ertasi, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarning nurli kelajagini qurishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi desak yanglishmagan bo'lamiz. Adabiyot va san'at millat ma'naviyatini rivojlantirish bilan birga boshqa millatlar o'rtasida madaniy aloqalarni yanada yuksaltirishga hizmat qiladi. Buning natijasini o'tmishda ham bugunda ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik rishtasi hamda ustoz va shogirdlik munosabatlari alohida va yorqin sifatlarni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati tushunchalari o'zaro uzviy bog'langandir. Millat ma'naviyatini rivojlantirish shaxs ma'naviyatini isloh qilishdan boshlanadi. Shaxs ma'naviyatini o'sib va takomillashib borishi esa bevosita millat ma'naviyatiga bog'liqdir. Xalq ichida ma'naviyatli shaxslarning soni oshgani sayin millat ma'naviyati ham yuksaklik sari bo'y cho'zadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Sputnik1. Sputnik O'zbekiston. Mirziyoyev: Yangi O'zbekistonni barpo etish ustunlaridan biri - kuchli ma'naviyatdir. 20:11 19
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir. -T.: Ta'svir, 2021.
3. Karimov I.A. O'zbekistoning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston, 1993.

